

Turizm va mehmonxonani rivojlantirish

Nuritdinov Azizjon Farxod o'g'li

Radisson blu hotel Tashkent xodim.

***Annotatsiya.** Takidlab o'tish joyizki turizmning rivojlanishi birinchi navbatda turizm industriyasining o'zagi bo'lgan mehmonxonalarning rivojlanishi bilan ham bog'liq. Chunki, mehmonxona biznesi turizmning ajralmas qismi bo'lib, birinchi navbatda turistlarni qabul qiluvchi va turistlarning tunashga, dam olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondiruvchi, murakkab xizmatlarni amalga oshiruvchi eng muhim bo'lagi hisoblanadi.*

***Kalit so'zlar:** mehmonxona, tranzit turistlar, ekskursion, assortiment, texnologiya.*

Mamlakatimizda mehmonxona xo'jaligining ravnaqi, uni yangi pog'onalarga ko'tarish, yurtimizni jahon turizm markazlaridan biriga aylantirish uchun avvalo huquqiy zamin yaratish lozim edi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining mazkur yo'nalishga taalluqli qonun va kodekslari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining turizmga oid qator Farmonlari ishlab chiqilib hayotga tadbiiq etildi. G'arb davlatlarida mehmonxona xo'jaligini boshqarish bo'yicha ko'p yillik tajriba yig'ilgan. Chunki, mehmonxona sanoati korxonalarini faoliyatida xorij tajribasini o'rganish shubhasiz, mehmonlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashda katta rol o'ynaydi.

2023-yil 1-yanvardan boshlab 2026-yil 31-dekabrgacha foydalanishga topshirilgan taqdirda, balandligi kamida besh qavatli yangi mehmonxonani qurish (rekonstruksiya qilish bundan mustasno) va jihozlash uchun investorlar xarajatlari bir qismini qoplanadi. Shu bilan birga, kamida 60 ta xonali 3 yulduzli toifasini tasdiqlagan mehmonxonalarga har bir xona uchun 40 million so'm, 4 yulduzli va 5 yulduzli toifadagi kamida 120 xonali mehmonxonalarga har bir xona uchun 65 million so'm to'lanadi.

Bundan tashqari, ushbu toifadagi mehmonxonalar mavjud bo'lmagan hududdagi birinchi ikkita 4/5 yulduzli mehmonxonalar va birinchi uchta 3 yulduzli mehmonxonalar uchun subsidiyalar miqdori 50 foizga oshadi.

Malakali kadrlar tayyorlash yo'nalishida:

- Talabalarni o'qitish uchun "franchayzing" asosida xalqaro miqyosda tan olingan ta'lim dasturlarini joriy etish.

- Turoperatorlik xizmatlari, gidlar, mehmonxona va transport xizmatlari kabi turizm sohalaridagi amaliyot bilan bir qatorda o'quv jarayonini o'tkazish uchun amaliy asoslarni yaratish.

-Turistik mavsum oylarida amaliyot o'tkazish bilan "blok-modul" tizimi asosida Dual ta'lim shaklida o'quv jarayonini tashkil etish.

- Kasbiy standartlar va malaka talablarini ishlab chiqish, ushbu jarayonga jalb qilingan mutaxassislarning ish haqi xarajatlari Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari bilan qoplanadi.

Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida

Turizm yo'nalishiga qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish, xususiy sektor uchun qulay shart-sharoitlar yaratish orqali turizm infratuzilmasini yanada takomillashtirish, aholi bandligini oshirish, transport qatnovi yo'nalishlarini kengaytirish, respublikaning turistik salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda targ'ib qilishni jadallashtirish, shuningdek, sohani davlat tomonidan boshqarishda yangi tartib-taomillarni joriy qilish maqsadida:

1. Respublikaga turistlar oqimini oshirish va turoperatorlarga davlat tomonidan qo'shimcha ko'maklar ko'rsatish maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab:

a) turoperatorlar tomonidan turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlardan O'zbekiston Respublikasiga olib kelingan har bir turist uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan teng ulushlarda 20 AQSh dollaridan 100

AQSh dollarigacha bo'lgan ekvivalentda rag'batlantiruvchi subsidiyalar ajratilsin.

Bunda, turistik oqim past bo'lgan xorijiy mamlakatlar ro'yxati, olib kelinadigan turistlar soni va rag'batlantiruvchi subsidiyalar miqdori hamda ularni berish tartibi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri tomonidan tasdiqlansin;

b) turoperatorlar va aviatashuvchilarning xorijiy mamlakatlardan Samarqand, Buxoro va Urganch xalqaro aeroportlariga amalga oshirilgan charter aviaqatnovlari bo'yicha xarajatlarining bir qismi har bir xorijiy turist uchun, u respublika hududida kamida besh kecha tunab qolgan taqdirda, 20 AQSh dollari, qish mavsumida (20-noyabrdan 20-fevralgacha) esa 50 AQSh dollari ekvivalentida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti va Turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan teng ulushlarda qoplab berilsin.

2. Mehmonxonalar sonini va ularda xizmat ko'rsatish sifatini oshirishni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida 2024-yil 1-yanvardan boshlab:

a) 3 yulduzli toifa uchun 60 ta xonadan kam bo'lmagan, 4 va 5 yulduzli toifa uchun 120 ta xonadan kam bo'lmagan xonalar fondiga ega besh qavatdan past bo'lmagan mehmonxona 2026-yil 31-dekabrqa qadar foydalanishga topshirilgan taqdirda, mehmonxona toifasi tasdiqlangach, investorlarning yangi mehmonxonani qurish (rekonstruksiya qilish bundan mustasno) va jihozlash uchun ketgan xarajatlarining bir qismini O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan quyidagi miqdorlarda qoplab berish tizimi joriy qilinsin.¹

Xulosa qilib aytganda, XXI asr turizmida mehmonxonalar biznesida nafaqat xizmatlar assortimentini ko'paytirishga, balki ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini va samaradorligini oshirishga alohida etibor berilmoqda, ya'ni xizmatlarning sifatini va samaradorligini oshirishda yangidan yangi

¹ PQ-238-сoH 27.07.2023. Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/-6549286>

texnologiyalar ishlab chiqilib amaliyotga joriy etilmoqda. Takidlash joizki, har qanday faoliyat turi xoh u ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bo'lsin boshqaruvni hamda yuqori daromad olish va samaradorligini oshirish uchun boshqaruvdan samarali foydalanishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan, mehmonxona xo'jaligida boshqaruv qonunlari, qonuniyatlari, funksiyalari, tamoyillari, boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish kabi boshqa shu kabi boshqaruvga oid masalalarni o'rganish hamda amaliyotga joriy etish fanining dolzarbligini belgilaydi. «Mehmonxona xo'jaligini boshqarish» fani umumkasbiy fani hisoblanadi. «Mehmonxona xo'jaligini boshqarish» fani Menejment, Marketing, Turizm, Xalqaro turizm, Mehmonxona xizmatlari, Turizm infratuzilmasi, Mehmonxonalarda ishbilarmonlik etiketi, Mintaqaviy turizm, Ekskursiya xizmatlarini tashkil etish kabi fanlar bilan aloqadorlikda o'rganish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. PQ-238-сoн 27.07.2023. Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/-6549286>
2. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish Tuxliev I.S. va boshqalar. —O'zbekistonda turizm xizmat bozorini rivojlantirishning ijtimoiy - iqtisodiy muammolari nomli monografiya. T.: — Iqtisodiyot 2012 y. 302 b.
3. Tuxliyev I.S., Quدراتov G=.H., Pardayev M.K. —Turizmni rejalashtirish.T.: —IQTISOD-MOLIYAI 2010 y. 263 b.